



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



30 Sentyabr
№32

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
32-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
32-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-10**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 32-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 38 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Хайруллаева Зебинисо Тохировна ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ МОСЛАШУВЧАНЛИГИДА ПСИХОЛОГИК ТРЕНИНГЛАРНИНГ ЎРНИ.....	7
2. Hayitova Shaxnoza Daniyarovna., Allazov Iskandar Salaxog'li MUSTAQIL TA'LIM OLISH TA'LIM TIZIMINING ENG MUHIM JARAYONI SIFATIDA	9
3. Bekjanova Aziza Aytmuratovna YOSHLAR MA'NAVİYATINI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING AHAMIYATI	10
4. Beknazarova Dilbar U'taganovna SHARQ MUTAFAKKIRLARI BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA ILM-MA'RIFATNING AHAMIYATI HAQIDA	12
5. Davronova Zulfiya Arifjonovna TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	14
6. Ibadullaeva Nasiba Oserbaevna TASVIRIY SAN'ATDA OQIM VA YO'NALISHLAR	16
7. Kosnazarova Shaxzada Bazarbaevna TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QITISHNING FAOL USULLARIDAN FOYDALANISH	18
8. Smetullaeva Nagima Paxratdinovna TASVIRIY SAN'ATDA RANGTASVIRNING AHAMIYATI	20
9. Allamberganova Sharban Omirbayevna O'ZBEK TILI DARSLARINI MUAMMOLI VAZIYAT ASOSIDA TASHKIL ETISH.....	22
10. Eshniyozova Gulhayo Hamroqulovna HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATINI MA'NO, MAZMUN VA VAZIFA TAMOYILI ASOSIDA O'RGANISH.....	24
11. Madiraximova Munajat Saparboyevna, G'ofurova Zilola Ergashovna BIOLOGIYA DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH	25
12. Eshmurodova Nafisa Obidovna O'ZBEK TILIDA OLMOSH TARKIBLI IBORALARNING BADIY ASARLARDAGI JOZIBASI	26
13. Qurbonova Gulnoza Abduholiqovna PRELIMINARY STUDY OF UZBEK HYDRONYMS.	28
14. Xalimova Kamola Muhiddinovna, Ismoilova Ramziya Ramazonovna, Turdiyeva Dilrabo Savriddinovna, Bahronova Gulnoza HUSNIXAT DARSLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	30
15. Вапайева Раиса Шавкатовна «КУЛЬТУРА РЕЧИ ПЕДАГОГА – КАК ОСНОВА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА»	34
16. Раззокова Шахло Джабборовна ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ШАХСИЙ-КРЕАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ	36



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ МОСЛАШУВЧАНЛИГИДА ПСИХОЛОГИК ТРЕНИНГЛАРНИНГ ЎРНИ

Хайруллаева Зебинисо Тохировна,

ЎзДЖТУ психологи

Телефон: +998(91) 922 25 24

*Хаётнинг инъомини кутиб ўтирмасдан,
уни ўзимиз яратишимиз керак
(Л.Н.Толстой)*

Анотация: Олий таълим муассасаларида фаолият кўрасатаётган педагог, психологлар фаолиятида таълим муассасасининг соғлом психологик мухитини яратиш, жамоа, гуруҳ ичидаги низоли вазиятларни олдини олиш, талабаларни касбга йўналтириш ва касбга ижтимоий мослаштириш ҳамда келиб чиқаётган турли тўсиқларни бартараф этишда психотренингларнинг ўрни ва роли муҳимлиги ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: тренинг, шахс, касб, талаба, атама, инсоният, жамият, хаёт, муассаса, низо, оммовий

Кейинги йилларда жамиятда инсонлар саломатлиги муаммоси давлат сиёсати даражасига кўтарилишининг аҳамиятли томони шундан иборатки, ҳар бир киши ўз саломатлигига нисбатан онгли муносабатда бўлмоқда. Саломатлик деганда нафақат жисмоний, балки, Президентимиз таъкидлаганларидек: “..... ҳар томонлама, яъни ҳам жисмонан, ҳам руҳан, ҳам маънан” соғлом бўлишга эътибор берилаётганлиги бизнинг ютуғимиздир. [1]

Олий таълим муассасаларида фаолият кўрасатаётган педагог, психологлар фаолиятида таълим муассасасининг соғлом психологик мухитини яратиш, жамоа, гуруҳ ичидаги низоли вазиятларни олдини олиш, талабаларни касбга йўналтириш ва касбга ижтимоий мослаштириш ҳамда келиб чиқаётган турли тўсиқларни бартараф этишда психотренингларнинг ўрни ва роли муҳим аҳамиятга эга.

Психологияда шахсга бўлган эътибор ниҳоятда катта бўлиб, бунинг биргина исботини “Шахс” атамасининг ўзинигина илмий жиҳатдан талқин этувчи 50 дан ортиқ таърифлар мавжудлиги билан изоҳлаш мумкин. Шунга қарамасдан шахс ривожланиши, шахс баркамоллигига берилган тушунча анчагина тарқоқ ҳолда бўлиб, турли психологик мактаблар бу тушунчани турлича талқин этадилар. Лекин уларнинг барчаси шахс баркамоллигининг асосида руҳий саломатлик ётишини таъкидлашган.

Барча даврларда, барча ҳалқларда инсоният ва жамиятнинг асосий бойлиги, қадрияти сифатида жисмоний ва руҳий саломатлик тан олинган. Қадимданоқ жисмоний ва руҳий саломатлик табиблар ва файласуфлар томонидан инсоннинг эркин фаолият юритиши ҳамда камолотининг асосий шарт сифатида тушуниланган. [2]

Касб - ҳунар эгалари қадимдан эъзозланиб келинган. Бизнинг давримизда уларга бўлган ҳурмат-эҳтиром янада ортади. Касб танлаш фаолиятини оқилона ташкил этиш учун мамлакатимиз қайси соҳа мутахассисларига муҳтожлигини назарда тутиш ва шунга яраша мактаб ўқувчиларини уларнинг майли, интилиши, қизиқиши, имконияти, ақлий ва жисмоний қобилиятларига қараб, ҳамда у ёки бу касбга яроқлилигини аниқлаб сўнгра касбга йўллаш керак. Хозирги даврда ҳалқ таълими бўлимларида, ишлаб чиқаришда, аҳолини иш билан таъминлаш муассасаларида, коллежлар ва Олий Ўқув юртларида ёшларга касб танлаш йўлини кўрсатадиган тренинг дастурларидан самарали фойдаланилса керакли натижани берган бўлади. [3]



Маълумки тренинг атамаси бугунги кунда жуда кўп ишлатилмоқда. Ҳатто бу атама бугунги куннинг энг урф бўлган ва оммавийлашган атамаларидан бири бўлиб қолди десак хато бўлмайди.

Бугунги кунда одамлар орасида тренинг атамасини тушунишда икки хил ёндашув мавжуд бўлиб, биринчи тоифадагилар аксарият шу соҳадан хабардор бўлган кишилардир. Улар тренингни исталган ҳаётий муаммоларини еча оладиган “Сехрли тайёкча” сифатида қабул қилишади, иккинчи тоифадагилар эса бу соҳадан хабардор бўлмаган ёки бу соҳани тан олмайдиган бўлиб, улар тренингни вақт ва маблағни бекорга сарфлашдан бошқа нарса эмас, деб тушунишади.

Ҳатто бир хил мақсадда ўтказилган маълум бир тренинг машғулотида иштирок этган битта гуруҳдаги кишиларнинг тренингга берган баҳоси ҳам турлича бўлиши кузатилади.

Хўш, тренинг нима ўзи? Бу атама тренингда бир маротабагина иштирок этган киши учун ҳеч қандай таърифлашсиз тушунарлидир. Тренингларда иштирок этмаганлар учун эса бу атамани тушунтириш анчагина мураккаб кечади. Тренингда иштирок этмаган кишига тренинг ҳақида гапириб беришни гўёки етилиб пишган олчани емаган кишига унинг мазаси ва таъминини тушунтиришга ҳаракат қилишга қийинлаш мумкин, яъни унинг мазасини тўлиқлигича тушунтириб бўлмайди ва буни шу мевани еб кўргандагина билиш мумкин, холос. Худди шунингдек тренинг ҳақида билиш, уни нима эканлигини ҳис қилиш учун ҳеч бўлмаганда бир маротаба тренинг машғулотларида иштирокчи сифатида қатнашиб кўриш лозим. [4]

Куйидаги тренинг машғулотларининг ахамияти юқори.

“Касб танлашга тайёрман” тренинг машғулоти.

Мақсад: Талабаларни танлаган касбини эгаллашга қанчалик тайёрлигини аниқлаш ва умумий ўрта таълимдан кейинги босқичида учрайдиган қийинчиликлар билан таништириш ҳамда уларни тайёрлаш.

“Касб ва лавозим” тренинг машғулоти.

Мақсад: Талабада ўз танлаган касбига нисбатдан фикр мулоҳазаларини мукамаллаштириш ва мотивацион ғоя беришдан иборатдир.

“Касбим-фаҳрим” (расмий тест).

Мақсад: Талабаларни танлаган касбига қизиқтириш ҳамда образли тасаввурларини аниқлашдан иборат [5]

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки талабаларнинг касбий мослашувчанлигида психологик тренингларнинг ўрни жуда ҳам муҳим. Шу жараёни енгиллаштириб берадиган касбий мослашувни яхшилаб берадиган машғулотлар орқали мақсадга еришиш йўллари мавжуд. Ҳар хил уйинлар орқали талабага танлаган касби тўғрисида аниқ маълумотлар ва кўникма малакалар ошириш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз” Ўзбекистон НМИУ, 2017.
2. Баратов Ш.Б, Олимов Я.Л. Социал тренинг ва амалиёт
3. Исмоилова. Н. Психологик тренинг асослари
4. Ж.А.Пўлатов Касбга йўналтириш ишлари бўйича тренинг дастури
5. Э.Ғ.Ғозиев, К.Қ.Мамедов. Касб психологияси



MUSTAQIL TA'LIM OLISH TA'LIM TIZIMINING ENG MUHIM JARAYONI SIFATIDA

**Hayitova Shaxnoza Daniyarovna.,
Allazov Iskandar Salaxog'li.**
Самарқанд Давлат тиббиёт институти.

Annotatsiya: Ta'lim tizimiga rivojlangan davlatlarning ta'lim standartlarini joriy etish nafaqat o'quvchilarni o'qitishning o'quv -uslubiy mazmunini, balki o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini qidirishni, ularni o'zgartirish zarurligini oldindan belgilab beradi. bu jarayon esa vmustaqil ta'lim olishni kuchaytirishni va doimiy optimallashtirishni nazarda tutadi.

Maqolada e'lon qilingan kompetentsiyaga asoslangan ta'lim modelida talabalarining mustaqil ishlarining o'rni, ma'nosi va ulushi to'g'risida yangi tushuncha taklif qilinadi, mustaqil ish vazifalarini tushunishning asosiy uslubiy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish va yangisini yaratish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimi, mustaqil ish, kompetentsiyalar, kompetentsiyaga asoslangan ta'lim modeli.

Mustaqil ta'lim - talabalarining rejalashtirilgan o'quv, tarbiyaviy tadqiqotlari, tadqiqot ishlari, topshiriq bo'yicha darsdan tashqari bajaradigan metodik va o'quv faoliyatidir.

Talabalarining mustaqil ishlari o'qitishning modul tizimida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda Davlat ta'lim standarti, o'quv rejada keltirilgan fanlarning soatlarning 50% ortig'ini mustaqil ta'lim tashkil etadi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish kontseptsiyasi kasb - hunar ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'qitishdir. Tegishli darajadagi va keng profilli malakali xodim,

mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, mas'uliyatli, o'z kasbini yaxshi biladigan va unga tegishli mutaxassislik bo'yicha samarali ishlashga qodir bo'lgan faoliyat yo'nalishlarida jahon standartlari darajasida, doimiy professionallikka intiladigan kadrlarni tayyorlashda mustaqil ta'limning ta'lim jarayonidagi rolini oshirmasdan erishib bo'lmaydi.

Bugungi kunda mustaqil ishning har xil turlari mavjuddir. Bularga asosiy auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruzalar, seminarlar), o'qituvchi nazorati ostida rejalashtirilgan maslahatlar, ijodiy aloqalar, testlar va imtihonlar shaklida mustaqil ishlar, o'quvchi o'quv va ijodiy xarakterdagi uy vazifasini bajarganida darsdan tashqari mustaqil ish vaqtlaridir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning yangi dizayn tizimini shakllantirishning yana bir muhim jihati bu umumiy asos ekanligini tushunishdir. Ta'lim jarayonida individual fanlarga emas, balki butun asosiy ta'lim dasturiga yondashish muhimdir. Bu integratsiyalashgan yondashuv bo'lib, natijada talabalarni maqsadlarni belgilash bilan bog'liq zarur ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirishga qodir bo'ladi.

Muammolarni hal qilish, rejalashtirish, muloqotni tashkil qilish, muammolarni bartaraf etish, oraliq bosqichlar va umuman loyihani aks ettirish, bir tomondan jamoaviy ishlash va boshqa tomondan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish qobiliyatini yanada shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Имакаев В. Р., Русаков С. В., Семакин И. Г., Хеннер Е. К. Новые подходы к организации и обеспечению самостоятельной работы студентов // Актуальные проблемы реализации образовательных стандартов нового поколения в условиях университетского комплекса: Материалы Всероссийской научно-методической конференции. Оренбург, 2011.



YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING AHAMIYATI

Bekjanova Aziza Aytmuratovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Nukus shaharidagi "Progress" ta'lim va rivojlanish

Markazi yonidagi 46-sonli ixtisoslashtirilgan umumta'lim
maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovor ekanligi, tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini namoyon etib, yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etishi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, o'quvchi yoshlar, o'qituvchi, rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik.

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rnini bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak.

Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo'llanmada rangtasvir haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritiladi. O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq pedagogikasi an'analari qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'alarga ega bo'lgan.

Tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san'at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi. Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar.

Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'jazz, dastgohli turlarga bo'linadi.



Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.

Mo'jaz san'at asarlari turli mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston hududida judaham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. Chunonchi, Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi. Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo'yoq, guash, suvbo'yoq, tempera bo'yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o'rnatilib ishlanadi.

Grafika – lotincha «grafo» so'zidan olingan bo'lib, «yozaman», «chizaman» degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbo'yoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va hakozolar kiradi.

Haykaltaroshlik – tasviriy san'at turlaridan biri. U lotincha «skulpo» so'zidan olinib, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o'yish, taroshlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi. Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir.

Adabiyotlar.

- 1 Egamov Sh. Bo'yoqlar bilan ishlash. — T. : O'qituvchi, 1981
- 2 Nabiev M. Rangshunoslik. — T. : O'qituvchi. 1996



SHARQ MUTAFAKKIRLARI BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA ILM- MA'RIFATNING AHAMIYATI HAQIDA

Beknazarova Dilbar U'taganovna

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi
66-umumtalim maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998 942808155

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkirlar ta'limotida ilm-ma'rifatning ahamiyati haqidagi g'oyalar hamda bilimlarni egallash barkamol shaxsning shakllantirish omillaridan ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Forobiy, Beruniy, Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, ko'plab risolalarida, Ilmlar ko'pdir, insonning kamoloti, bilim tushunchasi, "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq".

"Ulug' ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmatsevtika, me'morlik, tarix, adabiyot, san'at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi", - deb ko'rsatilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorida Ona O'zbekistonimizdan yetishib chiqqan mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya, shaxs ma'naviy kamoloti masalalariga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadi. Buyuk allomalarimiz ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug'laydilar, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallashga da'vat etadilar.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy kabi buyuk mutafakkirlarimiz ta'limotida barkamol shaxs tarbiyasida ilm-ma'rifatning ahamiyati haqidagi fikrlar atroflicha yoritilgan.

Jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mashhur faylasuf, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bog'liqligi haqidagi fikrlarini ilgari suradi. Forobiyning e'tirof etishiicha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Forobiy insonning kamoloti uchun xizmat qilgan, xayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalar, bekorchilar kabi yomon odatlar bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlar jamiyatga ziyon keltiradi deb, kishilarni undan ogohlantiradi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir, deydi u: "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir". Qomusiy olim odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borilishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini ham ta'kidlab o'tadi: "Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir..."

Tabobat ilmi sultoni, faylasuf, matematik, ruhshunos olim, musiqachi, benazir shoir sifatida ilm-fanning juda ko'p sohalari rivojiga munosib hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga ham sharh beradi va bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida ta'kidlaydi: "Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordi-yu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsa-yu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmandlik deyildi". Ibn Sino ilm-fanni egallashga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir, ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi, deb aytadi:

Tark qil bor narsani, jon barchadin a'lodudir, Jon kamoli ilmdandir, ilmdandir so'li sog'.



Jon agar bir shisha bo'lsa, ilm sham chirog'. Hikmati insonin bilgil uch chiroqda misli yog'. Buyuk shoir Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,
Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ahmad Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq" asarida shaxsning kamolotga yetishuvida ilmning ahamiyati, ilmsizlikning zarari haqida qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Ilmli va ilmsiz kishini bir-biri bilan taqqoslash asosida ilm-ma'rifatning afzalligi, uning inson uchun qay darajada foydali ekanligini ochib beradi.

"Bilik birla bilinur sa'adat yo'li, Bilik bil sa'adat yo'lini bula", ya'ni bilim bilan saodat yo'li ochiladi, shunga ko'ra ilmli bo'l, baxt yo'lini izla, deydi alloma:

Ahmad Yugnakiy bilimli kishini qimmatbaho dinordir, ilmsiz johil kishini qimmatsez yemish (meva)ga oxshatadi: "Bahaliq dinar ul biliklik kishi, Bu jahil biliksiz bahasiz bishi".

Xulosa qilib aytganda, Sharq allomalarining bebaho asarlaridan samarali foydalanish barkamol shaxsni shakllantirishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. 2018-yil 12-may.
2. Xurshid Davron. Adib Ahmad Yugnakiy va asari haqida ikki maqola.
3. [www. Ziyonet. Uz.](http://www.Ziyonet.Uz)
4. www. sharqjurnali. uz



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Davronova Zulfiya Arifjonovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Nukus shahar 48-sonli matematika faniga
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining
Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san'at darslarida nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv haqida aytilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, interfaol metod, ta'lim – tarbiya, pedagogik texnologiya, innovacion usul, dars, o'quvchi, o'qituvchi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasiga berilayotgan e'tibor, jamiyatda o'qituvchilarning obro'sini oshirishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar barkamol, keng dunyoqarashli, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, aytish mumkin-ki, O'zbekistonning yorqin kelajagini ta'minlash borasidagi shaxdam qadamlarning asosidir. Davlat kelajagi yoshlar qo'lida, yoshlarning kelajagi esa bevosita ustozlar – o'qituvchilarning o'z kasbiga fidoyiligida namoyon bo'ladi. Bu borada ta'lim sohasida juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bilamizki, pedagogik texnologiya - oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tadbqiq etish yoki pedagogik masalalarni echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir.

Aytish mumkin-ki, pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan, aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan, takrorlana oluvchi pedagogik harakatlar tizimidir.

Yangi pedagogik texnologiyalarning maqsadi – ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish esa yangi sifat darajasiga o'tish imkonini beradi.

Tasviriy san'at darslarida innovacion usullarni keng qamrovli qo'llash orqali chuqur mulohazali, teran dunyoqarashga ega bo'lgan avlodni kashf eta olish imkoni qo'lga kiritiladi. Zero, innovacion jarayonlar ham ongli boshqarilishi mumkin. Yangilik kiritish – bu eng avvalo, tabiiy va sun'iy o'zgarishlar jarayonini boshqarish funkciyasidir. Shuning uchun ta'limdagi innovacion jarayon – bu ta'limdagi o'zgarishlarni boshqarish jarayoni demakdir. Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatiga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Pedagog muvaffaqiyatining siri nafaqat u qo'llayotgan texnologiyalarda, balki pedagog-tarbiyachi sifatidagi rolini qoyilmaqom ijro etishida, o'quvchilarining qalbiga yo'l topa olishida ko'rinadi. Har bir o'qituvchining u qanday texnologiyani qo'llashidan qat'iy nazar, pedagogik muomalasi betakrordir va shunday bo'lishi ham kerak.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni zeriktirishini inobatga olgan holda interfaol darslarni o'quvchilarning dunyoqarashi va ruhiyatiga mos tarzda tashkil etishni taqozo etadi. Yangi pedagogik texnologiya dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib, ularni xilma-xil tarzda, o'qituvchi o'quvchini o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, har bir dars, fan yoki mavzuni o'rganishda o'ziga xos texnologiya, metod va vositalarni tanlash va foydalanishga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Tasviriy san'at darslarida o'qituvchi har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilishi va uni tasavvur etish uchun ham bo'lajak dars jarayoni loyihalanishi kerak.

Bunda darsning texnologik xaritasini tuza olish juda muhimdir, chunki darsning texnologik xaritasi darsning qiziqarli bo'lishi uchun asosiy vosita hisoblanadi va darsda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlarning kafolatlanishiga yordam beradi. Interfaol metodlar nafaqat o'quvchilar ongini faollashtiradi, balki ularning hissiyoti va irodasini ham rivojlantiradi.

Dars jarayonini joriy etishda va uning strukturasi unumli foydalanishda o'quvchilar faolligini tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Zero, jarayon markazida o'quvchi shaxsi turadi.



Demak, ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsiga qaratilmog'i zarur. O'qituvchi, o'quvchilar birgalikda va bir vaqtda vazifani bajarishda hamkorlik qiladilar, ham ijodkorlikda ish yuritadilar. O'qituvchi so'zlash, tushuntirish, ko'rsatish jarayonida barcha o'quvchilarni jalb qilgan holda masalani birga muhokama qiladi. Bunday muloqotlar o'quvchilar ishonchini qozonishga, o'zaro muloqotga kirishishga, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasining hosil bo'lishiga olib keladi. Umumiy o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos kamchilik va etishmovchiliklari ham mavjud. Barchani qiziqish, qobiliyatlaridan qat'iy nazar bir xilda, bir maqsad yo'lida izlanish, fikrlash, ishlashga undaydi. O'quvchilarning rivojlanish darajasi, tayyorgarligi har xil bo'lganligi tufayli bilim va ko'nikmalarni qabul qilib olish, o'zlashtirish birdek natijani kafolatlamaydi. Dars sifati va samaradorligi pasayishi holatlari kuzatilishi mumkin. O'qish, o'zlashtirishlari sust bo'lgan o'quvchilar sekin ishlaydilar. O'quv materiallarini to'la o'zlashtira olmaydilar. Ular ko'proq o'qituvchining shaxsiy e'tiboriga muhtojlik sezadilar. Umumta'lim maktablarida fan xonalarini dars jaryoniga tayyorlashda o'quvchilarning kichik yoki katta guruhlarda mashg'ulotlarni o'tkazishlariga e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarga jismonan qulay sharoit yaratilishi kerak.

Demak, tasviriy san'at darslarida ijodiy ish uchun materiallar oldindan tayyorlangan bo'lsa, ta'lim sifatini ko'tarilib borishga ko'maklashadi. Turli sinflarda turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida interfaol dars usullarining juda ko'p turlaridan foydalanishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.H. Nazirov. "O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari" Toshkent-2008
2. R.Ishmuxammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar -T.: 2013.



TASVIRIY SAN'ATDA OQIM VA YO'NALISHLAR

Ibadullaeva Nasiba Oserbaevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar

24-sonli umumta'lim maktabining

Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarida oqim va yo'nalishlar, asarlarni badiiy idrok qilish va jahon san'atida o'zining muhim o'rni bilan alohida ahamiyat kasb etgan impressionizm, postimpressionizm, kubizm, puantilizm, fovizm kabi yirik oqim va yo'nalishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oqim va yo'nalishlar, impressionizm, postimpressionizm, kubizm, puantilizm, fovizm, avangardizm, neoimpressionizm.

O'zbekiston ijtimoiy hayotida bolgani kabi, uning san'atida ham tub o'zgarishlar sodir bolmoqda. O'zining boy merosiga ega bolgan tasviriy san'at, xususan uning eng ommaviy turi-rangtasvir san'atining boshqa turlaridan o'zining taraqqiyparvarligi, g'oyalarni avangard usulda tasvirlashga qulayligi bilan ajralib turadi. SHu bois ham rangtasvirda turli oqim, yo'nalish va uslublarga tarmoqlangan hamda ramziy shakllar asosida yaratilgan asarlar tasviriy san'at tarixida alohida o'rin tutadi. Hozirgi zamon rangtasvirida asosan ikkita qarama-qarshi va ziddiyatli an'analarni ko'rish mumkin. Ularning biri «retro», ya'ni an'anaviy realistik qonun-qoidalar asosida yaratish bolsa, ikkinchisi esa, «avangardizm», ya'ni jahon san'atining ilg'or an'alarining chegarasidan olib chiquvchi oqim va yo'nalishlarning to'g'ridan-to'g'ri natijasidir. Avangardizmning nazariy ildizlari abstraksionizm va uning voqelikdan uzilishi oqibatida tug'ilgan emas. CHunki har qanday asar u yoki bu tarzda real xayotdagiga o'xshamasa ham, u avvalo voqealikni mujassamlashtiradi. Ijoddagi erkinlik jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi, jamiyat milliy uslublarni tilida ifodalangan o'z mazmunini san'atga beradi. Vaqolanki, milliy uslublarni bir guruh san'atkorlarning to'qimasi emas, hayotdagi hamma hodisalarga tegishli yo'riqnoma yoki yuqoridan quyiga tushirilgan yo'riqlar, xulq-atvor qoidasi yoki fikrlash usuli ham emas, balki etnik va til qardoshligining ma'naviy birligi jipslashtirgan hamda tarixiy yo'nalishlarning hamkorligida yuzaga kelgan harakat natijasidir. Jahon san'ati taraqqiyotida ayrim davrlar mavjudki, amaldagi badiiy usul, yo'nalish va tasvirlash vositalari davr talabini toliq qondirolmaydi. SHunda ijodkor yangilikka intilishi natijasida o'ziga xos yo'nalishga, uslubga asos soladi. O'zbekiston san'ati ham XXI asrga buyuk o'zgarishlar bilan kirib keldi. SHuning uchun ham ko'plab tashkil etilayotgan ko'rgazmalarda rassomlarning asarlari turli xil uslublarda ishlanganligining guvohi bolamiz. Ayni paytda bunday asarlarni tushunmaslik holatlari ham kuzatiladi. Buning boisi esa san'at asarlarini «o'qish»ni, tahlil qilishni, oqim va yo'nalishlarni, uslublarni, o'ziga xos maktablarni bilmaslikda, ular xaqida ma'lumotga ega emaslikdadir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at fanidan 7-sinfda 1-soat suhbat mavzusi «Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar» bolib, unga jahon san'atida o'zining muhim o'rni bilan alohida ahamiyat kasb etgan impressionizm, postimpressionizm, kubizm, puantilizm, fovizm kabi yirik oqim va yo'nalishlar kiritilgan. Kitobdan foydalanuvchilarning auditoriyasi kengayishi mumkinligini e'tiborga olib, ular haqidagi ma'lumotlarni ham kiritishni lozim topdik. Impressionizm (fransuzcha «impressionnisme»)-XIX asrdagi yirik badiiy yo'nalishlardan biri bolib, u qotib qolgan, dogmatik akademik - salon san'atiga zid ravishda maydonga kelgan va rivojlangan. 1874 yili Parijdagi qaxvaxonalarining birida «Xo'rlanganlar» (rasmii tan olinmagan rassomlarni shunday nomlashgan) asarlari ko'rgazmasi ochildi. Unda hamma ko'nikib, ko'zi o'rgangan sa'atga o'xshamaydigan, bir qarashda «haqiqiy san'at»ga zid bolgan rasmlar qo'yilgan edi. Bir jurnalist ko'rgazmaga atab yozgan maqolasining sarlavqasini Klod Monening ko'rgazmadagi «Quyosh chiqishi oldidagi taassurot» deb nomlangan asari asosida «Taassurotchilar» deb nomladi. Dastlab bir gurux rassomlarning ijodini ta'riflash uchun ishlatilgan bu ibora keyinchalik haykaltaroshlik, musiqa, adabiyot va san'atning boshqa turlariga nisbatan ham qollanila boshlandi. Bu uslub o'z mazmuniga ko'ra realistik bolib, uning imkoniyatlarini yanada boyitdi. Ta'biatning tez o'zgaruvchan holati (tong, peshin, oqshom, nam va quruq havo, bulutli va quyoshli kun), shaharning jo'shqin va gavjum hayoti lavhalarini rassomlarni qiziqtirdi.

Postimpressionizm (lotincha «post» keyin ma'nosini anglatadi) - impressionizm ta'sirida



yuzaga kelgan oqim bolib, bu oqim vakillari impressionistlar kabi toza ranglarda ishlasalarda, ulardan farqli olaroq, shartlilik orqali umumlashgan obrazlar yaratishga intilganlar. Bu termin shartli bolib, odatda, impressionizmdan keyin yuzaga kelgan va uning yutuqlarini holda san'at tarixida o'z yullarini belgilab olgan rassomlar ijodini ta'riflash uchun qollaniladi.

Neoimpressionizm (frantsuzcha «neo-impressionnisme»)- XIX asr oxirlaridagi frantsuz rangtasvir san'atidagi oqimlardan biri. Uning yirik vakillari J.Syora va P.Sinyak hisoblanadi. Neoimpressionizm Belgiyada (T. Van Reyselberg), Italiyada (J.Segantini) ham yoyilgan.

Puantilizm (frantsuzcha «pointillisme», «point» «nukta» ma'nosini bildiradi)—«pointiller» — nuqtalar bilan yozish, chizish degani bolib, rangtasvirdagi yirik yo'nalishlardan biri. Bu uslubda rang surtmalari mayda dumaloq nuqtalar shaklida neoimpressionizmga xos xarakterga ega holda qo'llaniladi.

Fovizm (frantsuzcha «fauvisme», «fauve» so'zidan olingan bolib, «yovvoyilar» degan ma'noni anglatadi)-XX asr boshlari frantsuz rangtasvir san'atidagi oqim. Bu «les fauves» (yovvoyilar) taxallus 1905 yili Parij shahridagi «Mustaqillar saloni» ko'rgazmasida qatnashgan A.Matiss, A.Marke, J.Ruo, M.Vlamink, A.Deren, R.Dyufi, J.Brak, K.Van Dongen va shu kabi rassomlarga nisbatan ishlatilgan. Ular shakl, plastika masalalarini primitiv (o'ta sodda) usulda O'rta asrlar san'atiga o'xshash, shu jumladan, SHarq san'atiga xos usulda hal etishga intilganlar.

Adabiyotlar

1. Делакруа до Матисса. Составители Р.Бретел, Э.Нортон, С. Стайн, Г. Гинтерой. - Ленинград: 1988.
2. Популярная художественная энциклопедия. Составители: В.М.Полевой, В.Ф.Маркузон, Д.В.Сарабьяков, В.Д.Синюков и др. - М.: Энциклопедия, I-II часть. 1986.
3. Словарь иностранных слов. - М.: 1979.



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QITISHNING FAOL USULLARIDAN FOYDALANISH

Kosnazarova Shaxzada Bazarbaevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Qarao'zak tumani 28-sonli maktabning tasviriy
san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san'at darslarida o'qitishning faol usullaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarda faol o'rganish qobiliyati, ya'ni ta'lim oluvchilarning ijod qilish va o'rganishga qiziqishini yuzaga chiqaruvchi faoliyat haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, o'quvchi, o'qitishning faol usullari, dars, evristik suhbat.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, kommunikation vositalardan keng foydalanish, hamda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlarini, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniyat va san'atga doir bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish juda muhim. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan, boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Ular yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, mehr-shavqat, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Bularni o'rganishda pedagogning yosh avlod tarbiyasidagi tutgan mehnati beqiyos.

Jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ma'lum bir maqsad belgilab olinadi, qonunlar qabul qilinadi, dasturlar va tadbirlar ishlab chiqiladi, rejalar belgilanadi va bular hozirgi talab darajasida amalga oshiriladi. Demak, ta'lim-tarbiya oldida loyihalash, ma'lum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi, pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qaraganda "shaxsni shakllantirish" ham ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya'ni barkamol shaxs tarbiyasining maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari mavjud bo'lib, bu ham o'ziga xos texnologiyadir.

Tasviriy san'at fanida tasviriy san'atga doir tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali ta'lim oluvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni maqsad qilib olinadi. Intellektual salohiyat o'qituvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyatini taqozo etadi.

O'qituvchi o'qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida pedagog o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, ta'lim oluvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Shu bilan birgalikda aytish lozimki, yuqorida keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglardan keng foydalanilsa, ta'lim oluvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash shakllanadi.

Faol ta'lim – bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimiy –pedagogik jarayondan iborat. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda asosan quyidagi ta'lim metodlaridan foydalaniladi:

- bahs – munozara; fikrlashga jalb qilish; doskada mustahkamlash;
- turli ta'limiy – kasbiy o'yinlarni amaliyotga joriy etish va boshqalar.

Tasviriy san'at darslarida ta'lim oluvchilarda faol o'rganish qobiliyati, ya'ni ta'lim oluvchilarning tadqiq qilish (ijod) va o'rganishga qiziqishini (intilishini) yuzaga chiqaruvchi faoliyatli yondashuv ta'lim metodlarini faollashtirishga asosiy didaktik asos bo'la oladi. O'qitishning faol usullari-bu ta'lim oluvchilarni o'quv materialini egallash jarayonida faol fikrlash va amaliy faoliyatiga undovchi usullardir. Faol o'qitish usullarning shunday usulidan foydalanishni ko'zda tutadiki, u asosan o'qituvchi tomonidan tayyor bilimlarni bayon qilinishi, ta'lim oluvchilarni ularni eslab



qolishlari va qayta tiklashlariga emas, balki faol idrok etish va amaliy faoliyat jarayonida talabalar tomonidan bilimlar va ko'nikmalarni mustaqil egallashlariga qaratilgan.

O'qitishning faol usullarining xususiyatlari ta'lim oluvchilarni faol idrok etish va amaliy faoliyatga undashdan iborat, busiz bilimlarni egallashda ilgari yurib bulmaydi. O'qitishning faol usullarini paydo bo'lishi va rivojlanishi o'qitish jarayonining oldida paydo bo'lgan. Ta'lim oluvchilarga nafaqat bilimlar berish, balki idrok etuvchi qizikishlar va qobiliyatlar, ijodiy fikrlash, mustakil aqliy mehnatning ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlanishini ta'minlashdan iborat bo'lgan yangi vazifalar bilan ifodalanadi. Yangi vazifalarni vujudga kelishi axborotlarni shiddatli rivojlanishi bilan asoslanadi. O'qitishning faol usullaridan o'quv jarayonining har xil boskichlaridir: bilimlarni birlamchi egallash, bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikmalarni shakllantirishda foydalaniladi.

O'qitish usullarini tanlashda hammadan avval o'quv materialining mazmunini tahlil qilish va faol usullardan ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlari, ularning idrok etish qobiliyatlari, hayotiy tajribasi, haqiqiy faoliyatga moslasha olishligi muhimdir.

Adabiyotlar:

1. N. Muslimov, M.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.To'raev. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015
2. R.Ishmuxammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar -T.: 2013.



TASVIRIY SAN'ATDA RANGTASVIRNING AHAMIYATI

Smetullaeva Nagima Paxratdinovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Mo'ynaq tumani 5-sonli maktabning tasviriy san'at
va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishlashda orttirilgan tajribalar muhim ahamiyatga ega ekanligi, chunki bo'yoq bilan ishlash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqishi, badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, o'qituvchi, rangtasvir, perspektiva, rangshunoslik, kompozisiya, yorug'-soya.

Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda. Tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak.

Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo'llanmada rangtasvir haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritiladi.

Xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq pedagogikasi an'alarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalb etish kata tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san'at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi.

Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Rang orqali natyurmort ishlash tasviriy san'atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, kompozisiya, yorug'-soyalarni o'rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi.

Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. O'quvchilar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va harakatlarini, shuningdek tabiat go'zalliklarini chuqur idrok etadilar.

Tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishlashda orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishlash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi.

Akvarel bilan ishlashda talabga javob beradigan qilib jixozlanish kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlardan ehtiyot qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim. Akvarel bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigarranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishlash monoxrom yoki grizayl metodida ishlash deb ataladi.

Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

1. Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog'oz bo'lagiga surtib, sinab ko'riladi.

2. Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yqalam hamisha eritmagan rosmana botirib olingan bo'lishi kerak.

3. Ostki qavatdagi buyoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.



4. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.

5. Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

Agar taxtacha ko'rinishidagi akvarel ishlatilsa, bo'yoq tez-tez ho'llab turiladi, hamda toza mo'yqalam bilan olinadi.

Akvarel bilan ishlashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo'yib yangi tus hosil qilish mashqni olaylik. Bunda qo'yilgan xar ikkala rang ostidan ham qog'ozning sirti sezilib turmog'i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo'llarini puxta o'rganish kerak. Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash yo'li bilan ham qo'shimcha rang tusini topish mumkin.

Ayrim hollarda qo'yilgan ranglarning yorug'lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplab tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Lekin oldin qo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to'yinganligi muhim ahamiyatga ega. Ustki qo'yiladigan qavati esa doimo ohangdor, juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bo'g'masligi shart.

Rang tuslarini haddan tashqari to'q tusda olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirlarda keskin ko'zga tashlanadigan rang dog'chalari hosil bo'lishi mumkin. Akvarel bilan ishlatishda bir rangning o'zidan har hil rang tuslarini xosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak.

Adabiyotlar

1. R.Xasanov "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" T. 2004.
2. R.Xasanov. "Tasviriy san'at asoslari". T. 2009



О'ЗБЕК ТИЛИ ДАРSLARINI MUAMMOLI VAZIYAT ASOSIDA TASHKIL ETISH

Allamberganova Sharban Omirbayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Kegeyli tumani XTBga qarashli 5-sonli umumta'lim
maktabinig o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya; ushbu maqolada ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarini muammoli vaziyat asosida tashkil etish va dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar; ta'lim, qoraqalpoq, til, o'zbek tili, metod, qiyoslash.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilining o'qitilishi muhim ta'limiy ahamiyatga ega. Bu ikki qardosh tilni qiyosiy o'rganish natijasida o'quvchi o'z ona tilini ham o'zbek tilini ham puxta va asosli o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mamlakatimizning, barcha jabhalarida ro'y berayotgan tub islohotlar kabi ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Ta'lim berish tizimi mazmun jihatdan ham metod jihatdan ham o'zgarmoqda.

Muammoli o'qitish muammoli vaziyat yaratish bilan boshlanadi. Masalan, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili ta'limi jarayonida muammoli vaziyat quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi. Qoraqalpoq va o'zbek tillarini o'zaro qiyoslash orqali muammoli vaziyat yaratish. Bu usul deyarli barcha mavzularni o'rganishda amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga berilgan tovush (harf), so'z, so'z birikmasi, gap va matnlarni o'zaro qiyoslashni topshiradi. Egallangan bilimlarga tayangan holdal ularning o'xshashlik va farqli tomonlari o'quvchilar tomonidan mustaqil aniqlanadi. Chunonchi, o'ng va chap tomonda berilgan so'zlarni o'zaro qiyoslang, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang.

Muammoli savol qo'yish orqali muammoli vaziyat yaratish. Savol o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan qo'yilishi mumkin. Masalan, "Nima uchun "Ko'chirma gap" qo'shtirnoqqa olib yoziladi?" "Nega kishilarning ismi-sharifi va familiyasi, shahar va qishloqlarning nomlari bosh harf bilan yoziladi?" singari savollar o'rta tashlansa, o'quvchilar oldin egallangan bilimlarga tayangan holdal unga javob izlaydilar. Matnni o'qish va qo'yilgan savollarga javob izlash ham muammoli vaziyat yaratishning bir usuli bo'lib sanaladi. Misalan, o'quvchilardan Berdaqning "Bolam" she'rini o'qish hamda qo'yilgan savol va topshiriqlarga javob izlashni talab etilsa, o'quvchilar she'r matnini va mashq tarkibida berilgan gaplarni o'qib, o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob izlaydilar. Masalan, Berdaq Harg'abay o'g'li "Bolam" she'rida yoshlarni nimaga da'vat qiladi? v.h.

Muammoli o'qitish jarayonida suhbat metodidan ham unumli foydalaniladi. Odatda, suhbat vaziyatga qarab tashkil etiladi. Agar o'quvchilar qo'yilgan muammoni hech qanday tashqi yordamsiz o'zlari bajara olsalar, bunday holatlarda suhbatga ehtiyoj qolmaydi. Agar sinf o'quvchilari muammoni yechishga qiynalsalar, bunday holatlarda o'qituvchi suhbat metodidan foydalanadi. O'zbek tili darslarining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni to'g'ri tanlashga bogliq. Ilmiy metodik adabiyotlardan ma'lumki, o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni uch guruhga ajratish mumkin:

- qayta xotirlashga asoslangan metod;
- qisman izlanuvchanlikka asoslangan metod;
- izlanuvchanlikka asoslangan metod.

Bu metodlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, muayyan bir sharoitda qo'llashni talab etadi. Chunonchi, qayta xotirlashga asoslangan metodlar o'quvchiga muayyan bir qiyinchilik yaratmaydi, u tayyor o'quv materialini bilan ish ko'radi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflari o'zbek tili darslarida o'quvchilarga beriladigan ayrim topshiriqlar oldin egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni yangi sharoitda qo'llashni talab etmaydi, balki tayyor bilim, malaka va ko'nikmalarni xotirada tiklaydi, xolos. Chunonchi, o'zbek tili darslarida bajariladigan, ko'chirib ezish, izoqli ezuv, o'rganilgan mavzu doirasida berilgan so'roqlarga javob topish singari topshiriqlar qayta xotirlashga oid metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Qisman izlanuvchanlik metodlari topshiriqlarni bajarishda qisman ijodiylikni talab etadi. Chunonchi, o'zbek tilidan o'quvchilar bajaradigan topshiriqlar, berilgan namunalar yoki topshiriqni bajarish uchun o'tkaziladigan suhbatlar, o'qituvchi beradigan maslaqatlar qisman izlanuvchanlik



namunasidir. Nuqtalar o'rniga zarur harflar, kelishik qo'shimchalari, so'zlarni qo'yish, berilgan so'zga ma'nodoshlar topish; gapdagi muayyan bir so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtirish; gap yoki matnning mazmunini saqlagan holdal shaklini o'zgartirish; tayanch so'zlar yoki so'z birikmalari yordamida gaplar hosil qilish, matnlar yaratish singari topshiriqlar o'quvchidan qisman ijodiy yondashuvni, izlanuvchanlikni talab etadi. Qoraqalpoq maktablarining 5-sinflarida o'qituvchi o'rgatlayotgan o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rni bilan ishga soladi. Agar sinf o'quvchilari aqliy faoliyat usullari (kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umum-lashtirish v.q.) ni bajarishga etarli darajada o'rgatilmagan bo'lsa, unda qisman izlanuvchanlik yoki izlanuvchanlik metodlaridan foydalanish qiyin. Aqliy faoliyat usullarini bajara oladigan o'quvchilar berilgan til materiali (tovush (harf), so'z, so'z birikmasi, gap, matn)ni kuzata oladilar; ularni qiyoslab, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlaydilar, o'rganilganlaridan kelib chiqib, hukm va xulosalar chiqaradilar. Demak, o'qitish metodini tanlash o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga bog'liq. Real o'quv imkoniyati yuqori bo'lgan sinflarda ko'proq qisman ijodiy va ijodiy metodlarni ishga solishga to'g'ri keladi.

Qoraqalpoq maktablarining 5-sinflarida o'zbek tili darslarining samaradorligini ta'minlash ko'p jihatdan darslarni rang-barang usul va shakllarda tashkil etishga bog'liq. Keyingi yillarda omilkor o'qituvchilar ish amaliyotida "Topqirlar bellashuvi", "Bahs-munozara", "Sirtqi sayohat", "Ertak" darslari kabilardan keng foydalanilmoqda. Bu darslarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir maqsadga - darslarni qiziqarli va samarali uyushtirishga qaratilgan.

Adabiyotlar;

1. Berdimuratov E, Beicbergenov A, Pirniyazov X. Ha'zirgi qaraqalpaq tili (shunig'owlar jiynig'i), Nokis, Bilim, 1991
2. Berdimuratov YE. "Hezirgi qaraqalpaq tilinin leksikologiyasi". Nokis, qaraqalpaqstan, 1968



HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATINI MA'NO, MAZMUN VA VAZIFA TAMOYILI ASOSIDA O'RGANISH.

Eshniyozova Gulhayo Hamroqulovna

Navoiy davlat pedagogika instituti,
Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat va
ma'rifat bo'lim uslubchisi.

Annotatsiya: Halima Xudoyberdiyeva she'riyat — badiiyatga o'z jumlasiga bilan kirib keldi. Zotan, adabiyotga — badiiyotga faqat xos jumla bilan kiradilar: bir jumla o'qiganda bu Qodiriy, bu Usmon Nosir deydi. Halima Xudoyberdiyeva ham ilk she'rlaridanoq shunday shoir bo'ldi: jumlasiga qarab oltmish yildan beri "Bu Halimaxonim!" — deydi. Binobarin, biron she'rida birovga o'xshamaydi. Ergashganligi rost, ammo o'xshashi yo'q. Ushbu maqolada, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatini ma'no, mazmun va vazifa tamoyili asosida o'rganish borasida tahkiliy fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: poeziya, lirik kechinma, poetik obraz, lirik qahramon, hissiy ifoda tadriji, ma'no, mazmun, vazifa, tamoyil.

Bugungi istiqloq davri adabiyotshunosligida poeziyaning tadqiqiga katta e'tibor berilmoqda. She'riyatning o'ziga xos xususiyatlari, mazmun va shakl birligi, uning inson ruhiy va ma'naviy dunyosi bilan uzviy munosabati haqida adabiyotshunoslar turlicha fikrlar bildirganlar. Ilmiy izlanishlar natijasi o'laroq she'rga shunday ta'rif beriladi: "Ohang jihatidan ma'lum tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan o'lchovli va hayajonli ritmik nutq she'r (nazm) deyiladi. Uning ifodasida o'z o'rniga ega bo'lgan poetik obrazlar va ularning zamonaviy qiyofasi kuzatilgan."¹

Halima Xudoyberdiyeva she'riyati tarovat uning ijodiy qarashlariga o'ng tushdi. To'g'rirog'i, unga tarovatni qodir tabiatning o'zi ato etdi: har so'zida tarovat, har tarovatida xirom bor va tarovatu xirom yozganlarida harir tob tortib zuhurlanadi. Tabiatda xiromni shamol, suv, havo, Quyosh orolaydi, kakliklar, oqqushlar, turnalar, kabutarlarda savvara yuzaga chiqaradi. Halima tabiatning bu xiromlariga mahliyo bo'lardi. Havas qilgani she'riga va uning ohanglariga ko'chdi.

Nolam uzun. Nola meni sevsa kerak,
Umrin bo'yi u ko'ksimni o'ysa kerak.
Menga tarix kerak emas, tarixchilar,
"Bir nolali nay" deb yozib qo'ysa kerak...

Halima Xudoyberdiyevaning she'rlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ma'no jihatidan ruhiyatga yaqin va xalqchil, dilga yoqimlilik bilan ajralib turadi. She'rlarining har birida o'zgacha ma'no mavjud. O'ziga xosligi va turli insoniy tamoyillarga asoslangani bilan ham aslida uning she'rlarini o'rganish, mutolaa qilish zavq baxsh etadi. Jumaladan:

Ko'karmoq ne, bilmasdim bu zumgacha,
Ko'klab ketdi maysa qiyog'imgacha.
Boshtin-oyoq suyib razm soldi yor,
Gullab ketdi boshtin-oyog'imgacha.

Xulosa qilib aytganda, Halima Xudoyberdiyevaning she'rlarida o'ziga xoslik ma'noning prozadanda ustunroq turishini sezish qiyin emas. El-u yurt yarim asrdan ortiq jon qulog'i bilan tinglagan va mutaassir bo'lgan ovoz sohibasi Halimaxonim hamisha o'z she'rlari bilan boshqalar ruhiyatiga ta'sir qila oldi. She'rlarining vazifasini insonlar hissiyotlariga ta'sir etish va hayotiy-ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi. Mazmunning ahamiyati aslida inson ruhiyatiga ta'sir etishga qaratilgan va bu vazifa tamoyillini Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Halima Xudoyberdiyeva. Bu kunlarga yetganlar bor/Saylanma/. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
2. Halima Xudoyberdiyeva. Yo'ldadirman. T.: Sharq, 2006.
3. <https://fayllar.org/halima-xudoyberdiyeva-she'riyati-reja.html>
4. «Xalq so'zi» 22-sentabr 2019-y <https://xs.uz/uz/post/halima-ruhoniyyati>

¹ «Xalq so'zi» 22-sentabr 2019-y <https://xs.uz/uz/post/halima-ruhoniyyati>



BIOLOGIYA DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH

Madiraximova Munajat Saparboyevna

G'ofurova Zilola Ergashovna

Hazorasp tumani 29- son umumiy
o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchilari

Tel:998942361800

Annotatsiya: ushbu maqolada maktablarda biologiya darslarini tashkillashtirish va uni o'tkazish borasidagi qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: biologiya, zoologiya, dars, material, o'qituvchi, o'quvchi.

Biologiya ta'limida qisqa va uzoq muddatli eksperimentlardan foydalaniladi. Biologiya darslarining o'z maqsad va vazifalariga ko'ra o'quvchilarning yangi bilimlarini o'zlashtirishlari, mavzular bo'yicha amaliy malaka va ko'nikmalar xosil qilish rivojlantirish, takrorlash va mustaxkamlash kabi xillari xam farqlanadi. Biz asosan o'quvchilarning yangi bilimlarini o'zlashtirishlariga qaratilgan darslarni o'tkazishga to'xtalamiz. Dars materialini o'rganishni biz 4 etapga bo'lib o'rganamiz. Birinchi etap: o'quvchilarni yangi dars materialini bilan tanishishga tayyorlash. Bu etap o'quvchilarni yangi dars materialini o'rganishga tayyorlash o'quv materialini o'rganishga kirishini xosil qilish va o'tilgan dars materiallarini esga tushirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi etap: Bu etapda o'qituvchi o'quvchilar faolliklariga sabab bo'ladigan yo'llar fakt va xodisalar ko'rgazma qurollar o'quvchilarning turmush tajribalariga asoslangan xolda o'quv materialining o'zlashtirishga tayyorlanishi lozim. Xar bir mavzuni o'rganishning sabablari zaruriyati o'quvchilarga tushuntirilishi lozim. O'quvchi mavzuni o'rganish nima uchun kerakligini bilgandagina darsni faollik bilan o'rganishi mumkin. Masalan: «Barg» mavzusi o'quvchilarga o'simliklarning tabiatda jonivorlar va inson xayotida bargning axamiyati xaqida so'zlab berish orqali boshlanish darsga o'quvchilarning e'tiborini kuchayishiga sabab buladi. Darsda o'rganiladigan yangi mavzuni doimo avvalo o'rganilgan mavuga o'ta bog'langan xolda keltirib chiqarish zarur. Yuqoridagi talablarga amal qilinganidan so'ng mavzuni nomi rejasi sinf doskasiga yozishi kerak. Uchinchi etap: yangi dars materialini urganish. To'rtinchi bosqich: O'quv materialining xayotga tadbiiq etish. Quyida biologiya darslarida muammo vaziyati yaratish va o'tkazish xaqida qisqa ma'lumot beriladi. Muammoli darslarni tashkil etish fiziologik mavzularga oid darslarda yaxshi natija beradi. Darsda o'rganiladigan mavzuni muammoli savollar orqkali o'rganishda o'quvchilarga mavzudan kelib chiqadigan qiziqarli savollar beriladi, savollarga o'quvchilardan javoblar olinib, to'ldiriladi, xulosalar chikariladi. O'quvchilarga beriladigan savollarda qandaydir qarama – qarshiliklar bo'lsa dars yanada mazmunli o'tadi: Jigar qurti. jigarning o't yo'llarida xam yashaydi. Qurti nega o't suyuqligi parchalab yubormaydi. «Muskullarning ishi» mavzusida «qo'll bilan ketmon chopganda, nega bel og'riydi» kabi savollar shular jumlasidandir. Muammoli ta'limning 5 etapi ko'zga tashlanadi. 1 – etap. O'qituvchi tomonidan darsda xal etilishi kerak bo'lgan muammoning o'quvchilar oldiga «qo'yish yoki muammoli vaziyat xosil qilishni boshlash. 2 – etap. O'quvchilar tomonidan qo'yilgan masalani xal etishga kirishish. Bu etapda o'quvchilar qo'yilgan masalaga o'zlarining xayotiy tajribalari va olgan bilimiga tayangan xolda javob qaytaradilar. Bu etapda o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini diqqat bilan tinglashi, o'quvchilarning javoblarini to'g'ri – noto'g'ri ekanligini ularga aytmasligi shu yo'l bilan qo'yilgan muammoni xal qilishga birga o'quvchilarni jalb etishi, ularni fikrlash qobiliyatining aktivlashtirishga yordam berishi kerak. Bu etapda masalaning moxiyati yechila bermagach, o'quvchilar o'z bilimlarini yetishmayotganini sezib, yangi bilimlarni olishga yanada tayyorlanib keladilar, qo'yilgan muammoni yechishni boshqa yo'llarini izlab keladilar. 3 – etap. Qo'yilgan muammo savolni o'quvchilar mustaqil ish yoki o'qituvchining yordamida xal qilib shu masalani to'g'ri ijobiy xal etish. 4 – etap. Qo'yilgan muammo yechilgandan so'ng muxokama qilish. 5 – etap. Xulosalar chiqarish. Dastlabki 3 etap muammoli vaziyat yaratishda eng muxim qismlardan xisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Belskaya Ye.M. Botanika didaktikasi. T. «O'qituvchi»; 1976
2. Gurova R.A. Uroki obshey biologii. T, «O'qituvchi» 1988
3. Verzilin N.M, Korsunskaya V.M. Biologiya o'qitishning umumiy metodikasi, T. «O'qituvchi» 1983



О'ЗБЕК ТИЛИДА ОЛМОШ ТАРКИБЛИ ИБОРАЛАРНИНГ БАДИИЙ АСАРЛАРДАГИ ЖОЗИБАСИ

Eshmurodova Nafisa Obidovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21-umumiy
o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarninig barqarot munosabatidan tashkil topgan bo'ladi va nutqqa tayyor olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar frazeologizmlardir.

Kalit so'zlar: frazeologizm, frazema, olmoshlar, fe'l, so'z turkumlari, nutq jarayoni, leksik vosita.

Frazeologik birliklar leksik vositalarga nisbatan o'ta jozibali va tasirchan bo'ladi. O'zbek tili turg'un iboralarga boy. Ular tarkibida ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish turkumlariga oid so'zlar Grammatik jihatdan birikib rang barang m'nolarni ifodalaydi. Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi, gapning boshqa bo'lagi bilan yaxlit bir butun holda munosabatga kirishadi. Frazeologizmlar nutqda asosan butunligicha ya'ni tarkibidagi komponentlar o'zgarilmagan holda ishlatiladi. Biz mazkur maqolada tarkibida olmosh turkumiga oid so'zlar ishtirok etgan ba'zi frazemalar haqida fikr yuritamiz. (Frazemalarni izohlashda SH. Ramatullayev "Frazealogik izohli lug'ati" dan foydalandik) Ko'ratish olmoshlar ishtirok etgan iboralar: Shokir ota shifokarning gapiga quloq solmay u desa bu dedi, bu desa u dedi, xullas janjallashib qoldik. U desa bu demoq, "talashmoq" "janjallashmoq" ma'nosini ifodalaydi qo'shma gapga teng. Bu fe'l frazema. Morfologik va sentaktik tahlilda bitta turkum o'rnida qo'llanadi va bitta sentaktik vazefa –kesim vazefasini bajaradi. U yoqda qolib – "e'tiborsiz qoldirilib, zaruri muhimi unutilib" Muzokaraga chiqqanlar asosiy masala u yoqda qolib ko'proq zokirning ishi to'g'risida gapirishdi. Tilimizda o'zlik olmoshi ishtirok etgan frazemalar juda ko'p. O'z qarichi bilan o'lchamoq – "kim nimani anglash –bilish darajasiga baho bermoq, mulohaz yuritmoq" "Voy, voy nimalar deyapsi Vohidjon? –dedi o'rnidan qo'zg'alib siz hamma narsani o'z qariching bilan o'lchamoq" Salimaxon nevarasing bu yutug'idan o'ziga sig'may sevinib yuribdi. O'ziga sig'may –juda "ma'nosida sevinmoq so'zi bilan ravish o'rnida kelmoqda".

O'zida yo'q frazemasini xursand so'zi bilan birikib "benihoyat, juda ma'nosini ifodalagan. Hozir u o'zida yo'q xursand. O'zida yo'qotib qo'ymoq "gangib qolmoq, dovdirab qolmoq". Bu fe'l frazema. Onasining vafotidan keyin o'zini yo'qotib qo'ydi. O'zini ko'rsatmoq "nimaga qodir ekannini namoyish qilmoq" ma'nosini ifodalaydi. Odamning odami yurt ishida, xalq ishida o'zini ko'rsatadi. O'zini bilmay" o'z ahvolini idrok etmay; hushsiz" kasal odamga nisbatan qo'llanadi. Bemor uch kungacha o'zini bilmay yotdi. Ravish xarakterli frazema. O'zini bilmay ketmoq-qolmoq frazemasini esa "kekayib manmanlikka berilmoq" ma'nosini ifodalaydi.

So'roq olmoshlari ishtirok etgan frazealar ham turli xil ma'nolarda turli so'z turkumlar vazifalarida kelishi yoki ba'zilarida so'roq ma'nolarni ifodalash mumkin. O'zini qayerga qo'yishni bilmaslik- "kuchli hayajonlangan holda toqatsizlanmoq" ma'nosidagi fe'l turkumiga oid frazema. So'roq olmoshiga ishtirok etgan bo'lsada so'roq ma'nosida ifodalanmagan. Nasibaning yuzi buzari ketgan edi. U dag'-dag' titrar, o'zini qayoqqa qo'yishni bilmay atrofga besaramjon tashlardi. Kim biladikim bilsin- "aniq aytib bo'lmaydi, ehtimol" m'anosida, modal ma'noni ifodalash so'zlovchining fikriga shubha, gumon ma'nolarni ifodalovchi murakkab shakldagi modal so'z vazifasida keladi. Joningdan aylanay, yurtim, Shoiring ko'p ekan bildim, Kim bilsin, kim bilsin, agar Ulardan bir sado bo'lsa Tirik yurgaymidi hozir Usmon Nosir, Usmon Nosir. (M, Yusuf) Nima degan odam bo'lmoq – "noqulay, uyatli ahvolga tushmaysanmi?" ma'nosini ifodalash bilan birga so'roq ma'nosi ham mavjud... ko'rasan, bir kun emas –bir kun bu gaoni yuzing soladilar. O'shanda nima degan odam bo'lasan? Nimasini aytasiz – "xuddi shunday gapingiz to'ppa to'g'ri" Bu frazema tinglovchiga javob yoki izoh tariqasida gapdan oldin kelib, aytilayotgan fikrga tasdiq ma'nosida ifodalaydi. "Qaynonangiz shunchalar qattiqmidi, xola?" –so'radi tarbiyachi juvon. "Voy, nimani aytasan, bolam. Axir uyimizda janjal bo'lmagan kun yo'q edida". (R, Fayzeyev). Ha yoki to'g'ri kabi modakl so'zlardan ko'ra kuchli emotsionallikni ifodalaydi. Qayoqqa qo'l uzatsa, ...qo'li yetadi – "har qanday ishni bajarishga qodir" ma'nosidagi qo'shma gap frazema. Omboringiz dondan, dasturxoningiz nondan to'la, qayoqqa qo'l uzatsangiz



yetadi(S, Nazar) Mensiz ham kuning o'tmoqda,erkam Qayerga qo'l uzatsang,yetmoqda erkam.
(M. Yusuf)

Demak,olmosh turkumiga oid so'zlar ishtirok etgan frazemalar turli xil ma'nolarni ifodalab, turli so'z turkumlariga oid frazemalarni hosil bo'lishida ishtirok etadi. Bunday iboralar fe'l, ravish modal so'zlarhatto belgining darajasini bildiruvchi so'zlar o'rnida qo'llanilib turli vazifada keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'ati. T. 1992
2. "Ona tili va adabiyot" o'quv qo'llanma T2019
3. O'zbek tilidan universal qo'llanma T 2020



PRELIMINARY STUDY OF UZBEK HYDRONYMS.

Qurbonova Gulnoza Abduholiqovna

Teacher of the Pedagogical Institute of

Termez State University

gulnozaqurbonova@mail.ru

phone: +998907484744

Annotation: the name of all water Objects is called hydronyms. About 71 percent of the Earth's surface is occupied by 4 – Pacific, Atlantic, Indian, northern ice oceans. Some parts of the oceans are called seas. The depths, filled with water in the droughts, are called lakes. Smaller rivers are called Shadows, and smaller ones are called gills. The waters that add to the river or shade are called tributaries.

Key words: hydronyms, names of water objects, toponyms, terms that form hydronyms.

Gidronym (Greek territory – water + onoma – name of origin) refers to the name of origin, toponym type meanings of any (natural and artificial) objects in the water. On the territory of our republic, water objects such as rivers, shadows, ditches, canals, tributaries, springs, waterfalls, sardines are very common. In particular, in the Fergana Valley there are about 6500 rivers, shadows, valleys, about 120 shades in the middle stream of the Zarafshan River, 3120 in Qashqadarya, and more than 2200 rivers, shadows, Gorges in Surkhondaryo⁶⁵. At the same time, at present, 53 water reservoirs, 41 HPP, 1456 pump stations, 140 thousand km. ga nearby trenches, 30 thousand km. more than 4,3 million internal network channels have been built, of which 4,3 million are built. hectare serves to irrigate the land area ⁶⁶. All these water bodies have their own unusual name – gidronym.

